XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING QARORI

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko‘chasi 8-uy. 190700, tel.: (+99876) 47-77-338

2023 - yil 2 - iyun VI-59-92-8-108-K/23 Oltinsoy tuman hokimligi

Oltinsoy tuman mahalliy budjetining 2023-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-589-son Qonunining 20-moddasiga muvofiq tuman byudjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig'i A.Ergashovning takliflari eshtilib, Xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashi **qaror qiladi**:

1. Tuman hokimligi, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari **1 509 200 000** (bir milliard besh yuzi to'qqiz million ikki yuz ming) so‘mni tashkil etganligini hamda hozirgi kunda ishlatilmay turgan mablag‘lar hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritilgan takliflar doirasidagi mablag‘ quyidagi maqsadga yo‘naltirilsin:

-tuman hokimligiga hokimlikning xizmat avto-mashinalariga texnik xizmat ko‘rsatish uchun 80 000 000 (sakson million) so‘m;

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig'i (A.Ergashov)larga; Tuman mahalliy budjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan ajratilgan mablag‘larni maqsadli yo‘naltirilishini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Mahalliy budjetning qo‘shimcha shakllangan mablag‘lari favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda Kengashga hisobot berish sharti bilan hokimning qarori asosida

yo‘naltirilishi mumkinligi belgilansin.

5. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan qonunda belgilangan tartibda maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag‘lar ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

6. “Xalq va hayot” gazetasi tahririyati (N.Temirov)ga ushbu qarorni matbuotda yoritish tavsiya etilsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Q.Turdiyev) zimmasiga yuklansin.

8. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **B.O.Maxmatrayemov**